

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**SOS O'ZBEKISTON BOLALAR MAHALLALARI UYUSHMASINING FAOLIYATINI  
YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 11-fevraldag'i PQ-4185-son **qarorini** ijro etish, shuningdek, ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning oilaviy shaklini va boshqa muqobil shakllarini joriy qilish, ularning hamjamiyatga tezda ijtimoiy moslashishi uchun keng imkoniyat yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016-yil 12-avgustdag'i 263-son **qaroriga** muvofiq SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasining Toshkent, Samarqand va Urganch shaharlarida joylashgan bolalar mahallalari, yoshlar uylari va ijtimoiy markazlari budget mablag'lari hisobidan to'liq moliyalashtirishga qabul qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 11-fevraldag'i PQ-4185-son **qarorida** belgilangan vazifalardan kelib chiqib, SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi bo'linmalarining faoliyatini to'g'ri ifodalash maqsadida:

bolalar mahallalari — bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlari;  
yoshlar uylari — yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlari;  
ijtimoiy markazlar — ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmatlari deb nomlansin.

3. Quyidagilar:

Bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq;

Ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016-yil 12-avgustdag'i 263-son qarorining **1-bandı** va qarorga **ilovaning** 4-pozitsiyasidagi "bolalar mahallalari, yoshlar uylari va ijtimoiy markazlarning" so'zları tegishlichä "bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlari, yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlari va ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmatlarining" so'zları bilan almashtirilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari B.A. Musayev va O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Sh.X. Shermatov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 21-noyabr,  
738-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 738-son **qaroriga**  
**1-ILOVA**

**Bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risida**  
**NIZOM**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va to‘liq davlat ta’midotidagi bolalar (keyingi o‘rinlarda — bolalar) uchun SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasining bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlarining (keyingi o‘rinlarda — xizmat) maqomini va ularni tashkil qilish tartibini belgilaydi.

2. Xizmat SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi filialining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi (keyingi o‘rinlarda — filial), uning doirasida bolalar oilada yoki oilaga o‘xshash muhitda, shuningdek, muqobil parvarish qilishning boshqa shakllarida tarbiyalanadilar.

3. Xizmat bolaning oilada yashash, tarbiyalanish, sog‘lig‘ini saqlash, ta’lim olish, ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanish, mehnat tarbiyasiga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarish, bolaga nisbatan nomunosib muomalada bo‘lishdan himoya qilish va jamiyatga qo‘sish maqsadida tuziladi.

4. Xizmatning asosiy vazifalari quyidagilardir:

oilada yoki oilaga o‘xshash muhitda, shuningdek, muqobil parvarish qilishning boshqa shakllarida bolalarning aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlanishiga yordam beradigan qulay muhitni yaratish;

bolalar hayotini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini saqlashni ta’minlash;

umumiy o‘rtta ta’lim olishlarini ta’minlash;

bolalarni ijtimoiy himoya qilishni va ularning jamiyatga moslashuvini ta’minlash;

bolalarni milliy urf-odatlar asosida Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash;

bolalarning mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga o‘z kasblarini o‘zlarini tanlashlari uchun sharoit yaratish;

muqobil parvarishlash holatidagi bolaning o‘z oilasi bilan aloqa bog‘lashiga ko‘maklashish; bolani o‘z oilasiga reintegratsiya qilish (qaytarish).

## **2-bob. Xizmatni tashkil qilish tartibi**

5. Xizmat SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi (keyingi o‘rinlarda — Uyushma) boshqaruvining qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi bilan kelishgan holda tashkil qilinadi.

## **3-bob. Xizmat tomonidan tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish**

6. Xizmat tarbiyaviy jarayonni oilada yoki oilaga o‘xshash muhitda, shuningdek, muqobil parvarish qilishning boshqa shakllarida tashkil qiladi. Xizmat oilaga o‘xshash muhitda tarbiyaviy jarayonni ta’minlash uchun tarbiyachi boshchiligidagi (SOS ona/ota-ona) oila deb ataladigan guruhni tashkil qiladi. Qoida tariqasida har bir oilada turli yosh va jinsdagi 4 nafardan 7 nafargacha bola tarbiyalanadi. Ayrim hollarda oilada 8 nafar bola tarbiyalanishi mumkin. Tarbiyachilar (SOS ona/ota-ona) oilaviy uyda doimiy ravishda yashaydilar.

“SOS — Kinderdorf Interneshn” xalqaro jamiyatining va Uyushmaning tegishli hujjalalarida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda oiladagi bolalar soni tarbiyachining (SOS onaning/ota-onaning) pensiyaga chiqish rejasini bajarish davrida uch yilgacha bo‘lgan muddatda belgilanganidan (4 nafar boladan) kam bo‘lishi mumkin.

7. Xizmatdagi har bir oila filial hududidagi alohida uyga joylashtiriladi yoki mahalla hududidagi yakka tartibdagi uyga (kvartiraga) joylashtiriladi.

8. Xizmat kamida 6 ta oilani tashkil qiladi.

9. O‘z oilasidan ajrab qolgan va qisqa muddatli muqobil parvarishlashga ehtiyoji bor bo‘lgan bolalar 8 oygacha muddatga qisqa muddatli muqobil parvarishlashga qabul qilinadi.

Qisqa muddatli muqobil parvarishlash filial hududidagi alohida uyda yoki mahalla hududidagi yakka tartibdagi uyda (kvartirada) tashkil qilinishi mumkin. Qisqa muddatli muqobil parvarishlash xizmati oilaga tenglashtiriladi.

10. Bola qisqa muddatli muqobil parvarishda bo‘lgan vaqtida ushbu xizmat tomonidan bolani o‘z oilasiga reintegratsiya qilish yoki bolaning manfaatlariga mos keladigan muqobil yechimni

topish ishlari olib boriladi (SOS oila, qondosh oila, patronat oila va muqobil parvarish qilishning boshqa shakllari).

11. Qisqa muddatli muqobil parvarishlashning bitta tarkibiy bo‘linmasidagi bolalar soni 8 tadan oshmaydi.

12. Qisqa muddatli muqobil parvarishlashda ishlaydigan tarbiyachilar kecha-kunduz navbatchilik bilan ishlaydilar.

13. Xizmatda tarbiyalanishga qabul qilingan bolalarning yoshi, qoida tariqasida, 3 yoshdan boshlab va umumiy o‘rtalim muassasasini tugatgungacha bo‘lgan yosh hisoblanadi. Uch yoshdan kichik bo‘lgan bolalar katta akalari va opalaridan ajralmaslik uchun xizmatga qabul qilinadi. Uyushma bilan kelishgan holda bolalar, agar qandaydir rasmiy tasdiqlangan sabablarga ko‘ra talabalar yotoqxonasida turar joy bilan ta’milanmagan bo‘lsa yoki biologik qarindoshlar ularga yashash joyini berishdan bosh tortgan hollarda o‘rtalim muassasasini tugatgunga qadar xizmatda tarbiyalanishi mumkin.

14. Bolani parvarish qilish bolaning rivojlanishidagi barcha ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, bolaning o‘z oilasidagi oilaviy munosabatlari, uning tugilib o‘sgan oilasi tarixi va o‘tmishda unga nisbatan nomunosib muomalada bo‘lganlik tajribasi ham e’tiborga olinadi.

15. Xizmat xodimlari bolalarning aka-ukalari va opa-singillarini, boshqa qarindoshlarini qidirib topishga, ularning munosabatlarini qo‘llab-quvvatlashga ko‘maklashishlari shart, bolalarning manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasno. Nizoli hollarda bolalar va ularning ota-onalari va/yoki qarindoshlari o‘rtasidagi munosabatlar tartibi vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadi.

16. Filial ma’muriyati bolalarning ota-onalari va/yoki qarindoshlari bilan uchrashib turishlariga ko‘maklashishi va ularning ota-onalik huquqlari tiklangan taqdirda ular bilan birlashishlariga hamda bolalarning manfaatlariga zid bo‘lmagan boshqa hollarda qarshilik ko‘rsatmasligi kerak.

17. Filial ma’muriyati bolalarning ota-onalari va/yoki qarindoshlari bilan uchrashib turishlariga qarshilik ko‘rsatishlari (bolaning manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasno) mumkin emas.

#### **4-bob. Bolalarni xizmatga qabul qilish tartibi**

18. Bolalarni xizmatga qabul qilish qonun hujjalari, ushbu Nizomda belgilangan tartibda va Uyushmaning ichki hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bolalarni xizmatga qabul qilish tarbiyalanuvchi yashaydigan joy bo‘yicha tuman (shahar) hokimining qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta’limi boshqarmasining yo‘llanmasi asosida amalga oshiriladi.

Xizmatga 10 yoshdan katta bolalar ularning roziligi bilan qabul qilinadi.

19. Xizmatga yuboriladigan har bir bola uchun vasiylik va homiylik organi tomonidan, boshqa tarbiya muassasasidan o‘tkazishda esa — tarbiya muassasasi ma’muriyati tomonidan quyidagi hujjalar taqdim etiladi:

tuman (shahar) hokimining bolani xizmatga joylashtirish haqidagi qarori va yo‘llanmasi;

tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma;

sog‘lig‘i to‘g‘risidagi tibbiy ma’lumotnoma va ambulatoriya kartasi;

ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjat (maktab yoshidagi bolalar uchun);

ota-onasi to‘g‘risidagi hujjalar (o‘lim to‘g‘risidagi guvohnomaning, sudning hukmi yoki qarorining nusxasi, ota-onasining kasalligi to‘g‘risidagi, ota-onasining qidirilayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, ota-onasining yo‘qligini yoki ular o‘z farzandlarini tarbiyalay olmasligini tasdiqlaydigan boshqa hujjalar);

aka-uka va opa-singillarning mavjudligi va ularning turgan joyi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;

bolaga tegishli mol-mulkning ro‘yxati va mol-mulkning saqlanishi uchun javobgar shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

ilgari egallab turilgan turar joyni voyaga yetmaganlarga biriktirish to‘g‘risidagi hujjalar;

sudning aliment undirish to‘g‘risidagi qarori nusxasi, shuningdek, nafaqa, pensiya va boshqa ijtimoiy to‘lovlar olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar (agar mavjud bo‘lsa);

bolaning nomiga ochilgan bank hisob raqami mavjudligi to‘g‘risidagi hujjat (agar mavjud bo‘lsa).

20. Tarbiyalash uchun xizmatga berilishi mumkin bo‘lgan bolalar soni filial ma’muriyati tomonidan Uyushmaning ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

21. Agar xizmatga tarbiyalash uchun berilgan bolalarda boshqa joyda turgan mol-mulk mavjud bo‘lsa, u holda ushbu mol-mulkni muhofaza qilish mol-mulk turgan joydagi vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

22. Xizmatdan chiqarishda tarbiyalanuvchilarga quyidagi hujjatlar beriladi:

- a) tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, 16 yoshga to‘lganlarga esa pasport ham;
- b) Xizmatda bo‘lganlik haqida ma’lumotnomma;
- v) sog‘lig‘i haqida ma’lumotnomma (tibbiy hujjatlar);
- g) ma’lumoti to‘g‘risida hujjat (maktab yoshidagi bolalar uchun);
- d) ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari haqidagi ma’lumotlar.

Bolaning mol-mulkka, pul mablag‘lariga, turar joyga (o‘zi yoki ota-onasiga qarashli bo‘lgan) egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, pensiya va omonat daftarchalari, alimentlar undirish to‘g‘risidagi ijo varaqasi va shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildidagi boshqa hujjatlar ham beriladi.

23. Tarbiyalanuvchilarning xizmatdan chiqishi to‘g‘risida filial direktorining buyrug‘i qabul qilinadi.

24. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bundan keyin tarbiyalash uchun qaytarilishi ushbu Nizomning [23-bandiga](#) muvofiq amalga oshiriladi. Bolaning yoshidan, yil vaqtidan va qaytish holatlaridan qat‘i nazar, bola yashaydigan joy bo‘yicha vasiylik va homiylik organining xulosasiga muvofiq chiqarilgan hokimning qarori tarbiyalanuvchining qaytishi uchun asos hisoblanadi.

### **5-bob. Xizmatdagи tarbiyalanuvchilarning huquq va majburiyatлari**

25. Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalar O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarga ega.

26. Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari qonun hujjatlariga muvofiq filial ma’muriyati va vakolatli davlat organlari tomonidan himoya qilinadi.

27. Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalar meros yoki hadya tartibida, shuningdek, boshqa qonuniy asoslarga ko‘ra ota-onalar, qarindoshlar yoki boshqa shaxslardan ularga o‘tgan mol-mulkka, turar joyga amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq egalik qilish huquqini saqlab qoladilar.

28. Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalar unga berilishi kerak bo‘lgan alimentlar, ijtimoiy nafaqalar, pensiyaga bo‘lgan huquqni (boquvchisini yo‘qtoganda, nogiron bo‘lib qolganda) hamda ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlarga huquqni o‘zida saqlab qoladi. Ushbu to‘lovlar bolaning nomiga ochilgan bank hisob raqamlariga o‘tkazilishi kerak.

29. Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan uy-joy ijaraga berilishidan olingan daromadlarga, ijodiy, kasbiy, mehnat faoliyatidan va boshqa faoliyatdan olingan daromadlarga bo‘lgan huquqni saqlab qoladilar. Bitimlardan olingan daromadlar filial ma’muriyati tomonidan faqat bolalarning manfaatlарини ko‘zlab hamda vakolatli organlarning roziligi bilan sarflanishi mumkin.

30. Xizmatda tarbiyalanuvchilarga tibbiy xizmat ko‘rsatish filial joylashgan hududdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan ta’milanadi.

31. Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalar maktabgacha va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida umumiyl asoslarda ta’lim-tarbiya oladilar.

Bunda bolalar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lgan vaqt uchun to‘lov undirilmaydi.

32. Xizmat tomonidan bolalar uchun qo‘srimcha ta’lim (to‘garaklar, studiyalar, sport seksiyalari va hokazolar) tashkil etishi mumkin.

33. Bolalarning o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalariga borishi bilan bog'liq yo'l haqi va ovqatlanish xarajatlari bolalarga to'lanadi.

34. Bitiruvchilar filial ma'muriyati bilan kelishgan holda ular o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasini tamomlagunlariga qadar, ushbu muassasada yotoqxona mavjud bo'limgan yoki yotoqxonada bo'sh joy bo'limgan taqdirda oilada yashashlari mumkin.

Bunda ularning ta'minoti uchun xarajatlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qiyotgan hamda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun budgetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan qoplanadi.

35. Urta maxsus, kasb-hunar va oliv ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan xizmatning bitiruvchilari o'zлari ta'lim olayotgan ta'lim muassasalari ma'muriyati bilan kelishgan holda ta'til davrida, dam olish va bayram kunlarida yashaganlik uchun haq to'lamasdan xizmatda turishlari mumkin. Xizmatda 2 kundan ortiq vaqt yashayotgan o'quvchilar va talabalar xizmat uchun belgilangan normalar bo'yicha haq to'lash sharti bilan ovqat bilan ta'minlanadilar.

#### **6-bob. Xizmat ta'minoti va uni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash**

36. Xizmat ta'minoti va uni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash davlat budgeti mablag'lari, muassislar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Ishchilarga to'lanadigan ish haqi, har bir oilaning budgeti, kommunal xizmatlar, bino va inshootlarni saqlash, ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish, shuningdek, xizmatning boshqa xarajatlari davlat budgeti mablag'lari hisobidan to'liq moliyalashtiriladi.

Xizmat yuqorida sanab o'tilgan xarajatlarga qo'shimcha sifatida muassislar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga ham xarajatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

37. Oilalar xarajatlarini qoplash maqsadida har bir tarbiyachiga bolalar ta'minoti uchun belgilangan normativlarga muvofiq har oylik pul mablag'lari to'lanadi.

Har bir alohida oila budgetiga quyidagilar kiradi:

bolalar va tarbiyachilarga oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar;

kiyim-kechaklar, poyabzallar, ko'rpa-yostiqlar, choyshablar va sochiqlar, kundalik xo'jalik va shaxsiy gigiyena buyumlari uchun xarajatlar;

o'yinlar, o'yinchoqlar, kitoblar, o'quv qurollari, boshqa mayda xo'jalik buyumlari sotib olish xarajatlari, shu jumladan, maktab yoshidagi bolalar uchun kundalik mayda xarajatlar;

bolalarning transport xarajatlari uchun to'lovlar;

sog'lomlashtirish, ta'lim berish va madaniy-ommaviy tadbirlar uchun xarajatlar.

38. Tarbiyachi tomonidan oila budgeti mablag'laridan tejab qolingga pullar oilaviy bayramlar va oilaning boshqa maqsadlari uchun ishlatalishi mumkin.

39. Har bir oilani moliyalashtirishga xarajatlari ajratish ushbu Nizomning [1-](#), [2](#) va [3-ilovasida](#) belgilangan me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi.

40. Maktab yoshidagi bolalar uchun kundalik mayda xarajatlarga har bir bola uchun oyiga bazaviy hisoblash miqdorining beshdan biri miqdorida mablag' ajratiladi.

41. Xizmatning moliyaviy boshqaruvi tizimi har bir oilada moliyaviy javobgarlik va hisobot berishga yo'naltirilgan.

Ma'muriy-boshqaruvi mexanizmlari filial rahbariyati tomonidan har bir oilaning tabiiy jarayonlariga aralashishni kamaytirishni nazarda tutadi.

#### **7-bob. Xizmat shtati va boshqaruvi**

42. Xizmat ishini boshqarish filial direktorining bevosita rahbarligida xizmatning koordinatori tomonidan amalga oshiriladi.

43. Xizmat xodimlarining soni [4-ilovadagi](#) Namunaviy shtatlarga muvofiq belgilanadi.

44. SOS ona/ota-onalar (keyingi o'rnlarda — tarbiyachi) Uyushma tomonidan belgilanadigan tartibda tanlov asosida ishga qabul qilinadi va oila boshligi hisoblanadi.

45. Tarbiyachi jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shuningdek, sudlarda tarbiyalanuvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan qonuniy vakil hisoblanadi.

46. Tarbiyachi quyidagilarga majbur:

bolalarni tarbiyalash, ularning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, axloqiy-ma’naviy kamol topishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;

bolalarning qadr-qimmatini tahqirlash, zulm qilish, shafqatsizlik va mensimaslik kabi munosabatlardan xoli bo‘lgan maqbul pedagogik usullar bilan bolalarni tarbiyalash;

oilada axloqiy-ma’naviy va uy muhitini yaratish;

o‘z majburiyatlarini tarbiyalanuvchilarining huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazgan holda bajarmaslik;

bola uchun o‘ziga berilgan hujjatlarning saqlanishini ta’minalash;

har olti oyda tibbiy dispanser ko‘rigidan o‘tish;

qonun hujjatlariga va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

47. Tarbiyachi ota-onalar (ularning o‘rnini bosadigan shaxslar) uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi, aliman to‘lash majburiyati bundan mustasno.

48. Tarbiyachi xizmat tomonidan tashkil qilingan turar joylardagi oilalarda tarbiyachilik ish faoliyatining butun muddati mobaynida yashaydi.

49. Xizmatning barcha rahbar, pedagog va boshqa xodimlariga yetim bolalar va ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan ishslashning maxsus sharoitlari uchun ish haqi stavkasiga 50 foiz miqdorida qo‘sishma haq belgilanadi.

Tarbiyachilar va tarbiyachining yordamchilariga bolalar bilan kecha-kunduz, shu jumladan tungi vaqtida ishlaganligi uchun ish haqi stavkasiga 100 foiz miqdorida qo‘sishma haq belgilanadi. Tungi vaqtida ishlagan kunlari uchun ularga ushbu qo‘sishma haq 50 foiz miqdorida belgilanadi.

50. Tarbiyalanuvchilarini mustaqil hayot va mehnatga tayyorlash maqsadida filial ma’muriyati vakolatli organ bilan kelishgan holda bolalarni mehnatga, tadbirkorlikka yoki qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyatga jalb qilish huquqiga ega.

51. Xizmat tarbiyalanuvchilarining ta’minoti uchun berilgan mablag‘lar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha normalar va imtiyozlarni hisobga olgan holda to‘liq hajmda to‘lanishi lozim. Ayrim sabablarga ko‘ra o‘tgan moliya yilda to‘lanmagan pul mablag‘lari keyingi moliya yilda to‘lanadi.

52. Filialning barcha moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobini bosh buxgalter amalga oshiradi.

53. Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalgा oshiriladi.

54. Barcha tarbiyachilar moddiy javobgar shaxs hisoblanadi va belgilangan tartibda hisobot topshiradi.

55. Xizmat tarbiyalanuvchilarining ovqatlanishini tashkil etish tarbiyachi tomonidan amalgा oshiriladi.

56. Oziq-ovqat mahsulotlarini haftasiga kamida bir marta (tez ayniydigan oziq-ovqat mahsulotlarini haftasiga kamida ikki marta) sotib olish tarbiyachi tomonidan amalgा oshiriladi.

Tarbiyachi bolalarning yoshiga muvofiq ravishda balanslangan ovqatlanishini ta’minalaydi.

Tarbiyachi ovqat pishirish uchun zarur bo‘lgan mahsulotlardan sarflangan mahsulotlarni keyinchalik taomnomaga bo‘yicha hisobdan chiqarmasdan foydalanadi.

Oiladagi bolalarning sifatli va to‘laqonli ovqatlanishining tashkil etilganligi bolalarni muntazam ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, umumiy rivojlanishi, o‘sishi, vaznnini monitoring qilish, shuningdek, vrach yoki filial ma’muriyatining tanlab nazorat qilishi natijalariga ko‘ra aniqlanadi.

57. Mahsulotlar chakana savdo tashkilotlaridan xarid qilinganda to‘lov cheklari saqlab qo‘yiladi, oziq-ovqat bozoridan naqd pulga xarid qilingan mahsulotlar uchun esa dalolatnomada tuziladi.

58. Oziq-ovqat mahsulotlarini va boshqa tovarlarni hisobdan chiqarish tarbiyachilar tomonidan taqdim etilgan cheklar va dalolatnomalar asosida, filialning doimiy ishlaydigan komissiyasi tomonidan oyda bir marta amalgा oshiriladi.

59. Doimiy ishlaydigan komissiya tarkibi filial direktori tomonidan belgilanadi va uning buyrug‘iga asosan tasdiqlanadi.

60. Uzoq masofada joylashgan umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan bolalarga tarbiyachi tomonidan tushlik pul qiyomatidan oshmaydigan miqdorda tushlikka naqd pul beriladi.

61. Tushlik uchun naqd pullar normativlari doimiy ishlaydigan komissiya tomonidan bolalarning yoshiga qarab tasdiqlanadi.

62. Xizmat vrachi tarbiyachilarga oziq-ovqat mahsulotlarini, kiyim-kechaklar, poyabzallar, ko‘rpa-yostiqlar, choyshablar va sochiqlar, xo‘jalik va shaxsiy gigiyena buyumlarini tanlashda maslahat yordami beradi va ovqatlanishni tashkil etish va uning sifatini tanlab nazorat qiladi.

Vrach buxgalteriya va tarbiyachilarning dori-darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar, poyabzallar, ko‘rpa-yostiqlar, choyshablar, sochiqlar, xo‘jalik va shaxsiy gigiyena buyumlari xarid qilish uchun ishlatgan mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hisob-kitob yozishmalarini to‘sqiniksiz olish huquqiga ega.

63. Xizmatning (filialning) moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish Uyushma tomonidan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli vakolatlari organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risidagi **nizomga**  
1-ILOVA

**Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalarni oziq-ovqat bilan ta’minalash me’yorlari (bir kishi  
hisobiga kuniga grammda (brutto)**

T/r	Oziq-ovqat mahsulotining nomi	Bir nafar bolaga	
		Maktabgacha yoshdag‘i	Maktab yoshidagi
1.	1-nav bug‘doy non	240	600
2.	1-nav bug‘doy uni	35	40
3.	Kartoshka uni (kraxmal)	3	3
4.	Yorma,makaron mahsulotlari	70	90
5.	Qand-shakar	60	90
6.	Qandolat mahsulotlari	15	25
7.	Sariyog‘	30	35
8.	O‘simlik yog‘i	15	20
9.	Sut-qatiq mahsulotlari	500	500
10.	Smetana	20	20
11.	Tvorog	40	50
12.	Pishloq	10	15
13.	Go‘sht, parranda go‘shti	125	150
14.	Kolbasa mahsulotlari	15	25
15.	Baliq	40	90
16.	Tuxum (dona)	1	1
17.	Kartoshka	250	400
18.	Sabzavotlar, shu jumladan, tomatpastasi	350	455
19.	Ho‘l mevalar, rezavorlar, sharbatlar	200	250
20.	Quruq mevalar, shu jumladan, na’matak 5 gr.	15	15
21.	Choy	0,5	0,5
22.	Kakao	1	1
23.	Yodlangan tuz	10	12
24.	Xamirturush	1	1

Izoh:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ovqatlanish normasi bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lishini hisobga olgan holda (bolalarni bepul oziq-ovqat bilan ta'minlaydigan lagyerlarda, sanatoriylarda, statsionar davolash muassasalarida) kamaytiriladi. Ushbu muassasalarda bolalarni tarbiyalash uchun to'lovlar amalga oshirilgan hollarda, tarbiyachi har bir bola uchun rasmiy ravishda belgilangan miqdorlarga muvofiq haq to'laydi.

2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarda belgilangan mahsulotlarni ayrim asosiy oziq-ovqat moddalari bo'yicha belgilangan tartibda almashtirishga ruxsat etiladi. Ovqatlanish ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar doirasida tashkil etiladi.

3. Xizmatda bolalarning qarindoshlarinikida bo'lgan vaqtlarida ovqatlanish normalariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlarini berish yoki ovqatlanish xarajatlari uchun naqd pul berish huquqi beriladi.

4. Xizmatda bolalarning sport va boshqa tadbirdorda ishtirok etish uchun O'zbekiston Respublikasining boshqa shaharlarida bo'lgan vaqtlarida ovqatlanish normalariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari yoki ovqatlanish xarajatlari uchun naqd pul berish huquqi beriladi.

Bolalarни муқобил парвариш қилиш xizmatlarining faoliyatini tashkil қилиш to'g'risidagi **nizomga**  
**2-ILOVA**

### **Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalarni kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq buyumlar bilan ta'minlash**

ME'YORLARI

T/r	Kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq buyum nomi	O'lchov birligi	Bir nafar bolaga					
			Maktab yoshidagi			Maktabgacha yoshdagi		
			soni		Foydalanish muddati (yil)	soni	Foydalanish muddati (yil)	
			O'g'il bolalar uchun	Qizlar uchun				
<b>Kiyim-boshlar</b>								
1.	Qishki palto / kurtka	ta	1	1	2	1	2	
2.	Mavsumiy palto, kurtka	ta	1	1	2	1	2	
3.	Maktab formasi	to'plam	1	1	1	-	-	
4.	O'g'il bolalar uchun kostyumlar (galstuk bilan)	to'plam	2	-	2	2	2	
5.	Jun kostyum (bayramlar uchun)	to'plam	1	-	2	1	2	
6.	O'g'il bolalar uchun ip gazlamadan tikilgan mакtab ko'ylaklari	ta	3	-	1	-	-	
7.	O'g'il bolalar uchun ip gazlamadan tikilgan ustki ko'ylaklar	ta	3	-	1	3	1	
8.	Qizlar uchun ko'ylaklar (yubkalar, bluzkalar)	ta	-	3	1	3	1	
9.	Qizlar uchun xalatlar/uy ko'ylaklari	ta	-	2	1	2	1	
10.	Qishki ko'ylaklar (bayramlar uchun)	ta	-	1	1	1	1	
11.	Jun sviterlar (jemperlar)	ta	2	2	2	2	2	
12.	Yozgi ko'ylaklar (bayramlar uchun)	ta	-	3	1	3	1	
13.	Yozgi boshkiyim	ta	1	1	1	1	1	
14.	Qishki bosh kiyim	ta	2	2	1	2	1	
15.	Qizlar uchun triko va shimlar	ta	-	4	1	4	1	

16.	Dastro'mol	ta	6	6	1	6	1
17.	O'g'il bolalar uchunshim kamarlari	ta	1	-	1	-	-
18.	Sharf	ta	1	1	2	1	2
19.	Qo'lqoplar (boshmaldoqli qo'lqop)	juft	2	2	1	2	1
20.	Ich ko'yvak	to'plam	4	4	2	5	2
21.	Sport formasi, krossovkalar	to'plam	1	1	1	1	1
22.	Byustgalter	ta	-	3	1	-	-
23.	Sport trusigi	ta	2	2	1	1	1
24.	Maykalar	ta	4	4	1	4	1
25.	Paypoqlar, ip gazlama golflar	juft	5	5	1	6	1
26.	Paypoqlar, jun golflar	juft	5	5	1	6	1
27.	Botinkalar, tuflilar (shippak)	juft	3	3	1	3	1
28.	Shippaklar	juft	2	2	1	2	1
29.	Etiklar, qishki botinkalar	juft	1	1	1	1	1
30.	Kalishlar	juft	1	1	1	1	1
31.	Sportkostyumi (yarim jun)	ta	1	1	1	1	1
32.	Tungi pijamalar	ta	2	1	1	2	1
33.	Kolgotkalar	ta	-	5	1	6	1
34.	Cho'milish ko'ylagi, plavkilar	ta	1	1	1	1	1
35.	Rezina shapka	ta	1	1	2	1	1
36.	Ish kiyimi	to'plam	1	1	2	1	1
37.	Portfellar, sumkalar	ta	1	1	1	-	-
38.	Ryukzak/shaxsiy buyumlarni saqlash uchun sumka	ta	1	1	3	1	5

### Yumshoq buyumlar

39.	Choyshablar	ta	3	1	5	1
40.	Ko'rpa choyshablari	ta	2	1	2	1
41.	Yostiq jildi	ta	3	1	4	1
42.	Sochiq	ta	2	1	2	1
43.	Paxmoq sochiq	ta	2	1	2	1
44.	Jun yoki momiqliadyol	ta	1	6	1	6
45.	Paxmoq adyol	ta	1	3	2	3
46.	To'shak	ta	1	4	2	3
47.	Par yostiqlar	ta	1	6	2	4
48.	O'ringa yopiladigan choyshab	ta	1	3	1	3
49.	Karavot oldiga to'shaladigan gilamcha	ta	1	4	1	4

Bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi **nizomga**  
3-ILOVA

### **Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalarni shaxsiy gigiyena buyumlari bilan ta'minlash NORMALARI**

T/r	Shaxsiy gigiyena buyumlarining nomi	O'lcov birligi	Bir nafar bolaga		
			Maktabgacha yoshdagi	Maktab yoshidagi	
				O'g'il bolalar uchun	Qizlar uchun

			soni	Foydalanish muddati (yil)	soni	Foydalanish muddati (yil)	soni	Foydalanish muddati (yil)
1.	Tish pastasi	ta	12	1	12	1	12	1
2.	Tish cho'tkasi	ta	3	1	3	1	3	1
3.	Kir sovun	ta	12	1	12	1	12	1
4.	Atir sovun	ta	24	1	24	1	24	1
5.	Kir yuvish poroshoklari	paket (400g.)	12	1	12	1	12	1
6.	Soqol olish buyumlari	ta	-	-	12	1	5	1
7.	Taroq	ta	2	1	2	1	2	1
8.	Hojatxona qog'ozzi	rulon	24	1	24	1	24	1
9.	Shampun	ta (200 g.)	12	1	12	1	12	1
10.	Dezodorant (aerozol)	ta	6	1	6	1	6	1
11.	Gigiyena qistirmalari	o'ram (10 tadan)	-	-	-	-	12	1
12.	Momiq paxta	o'ram (200 g.)	-	-	-	-	4	1
13.	Poyabzal moyi	tyubik	6	1	6	1	6	1
14.	Soqol olingandan keyin ishlataladigan loson	flakon (100 — 150g.)	-	-	6	1	-	-
15.	Badanni yuvish uchun gubka	ta	2	1	2	1	2	1
16.	Tog'ora	ta	1	3	1	3	1	3

Bolalarни муқобил парвариш қилиш хизматларининг фаoliyatini tashkil qilish to‘g‘risidagi nizomga  
4-ILOVA

### Bolalarни muqobil parvarish qilish xizmatlarining

#### NAMUNAVIY SHTATLARI

T/r	Lavozimlar nomi	Bir o'chov birlikka	Shtat birliklari soni	YaTS bo'yicha razryadi
1.	Filial direktori	xizmat	1	“Mehribonlik” uyi direktorining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
2.	Direktor yordamchisi	xizmat	1	5
3.	Koordinator	xizmat	1	8
4.	Tarbiyachi (ona)	oila	1	Xalq ta'limi muassasalaridagi tarbiyachining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi

5.	Tarbiyachining yordamchisi	oila	0,5	2
6.	Psixolog	xizmat	1	Xalq ta'limi muassasalaridagi psixologning bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
7.	Bolalar va o'smirlar bilan tarbiyaviy ish olib boruvchi pedagog-tashkilotchi	xizmat	1	Xalq ta'limi muassasalaridagi pedagog-tashkilotchining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
8.	Ijtimoiy xodim	xizmat	3	6
9.	To'garaklar rahbari	xizmat	1	Xalq ta'limi muassasalaridagi to'garak rahbarining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
10.	Bosh buxgalter	xizmat	1	10
11.	Buxgalter	xizmat	1	6
12.	Vrach	xizmat	1*	Ambulator muassasalari vrachlariga belgilangan tarmoq tarif razryadlari qo'llaniladi
13.	Logoped	xizmat	0,5	Maktabgacha ta'lim bolalar muassasalari logopedining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
14.	Yengil avtomobil haydovchisi	xizmat	1	1 — 3**
15.	Qorovul	xizmat	4	1
16.	Bog'bon	xizmat	1	2
17.	Xo'jalik mudiri	xizmat	1	4
18.	Xizmat xonalari farroshi	xizmat	1	1
	<b>Qisqa muddatli muqobil parvarish qilish***</b>			
19.	Etakchi ijtimoiy xodim	tarkibiy bo'linma	1	7
21.	Tarbiyachi	tarkibiy bo'linma	3	Xalq ta'limi muassasalaridagi pedagog-tashkilotchining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
22.	Oshpaz	tarkibiy bo'linma	1	4

\* tibbiyot xodimlarining tarmoq tarif jadvali bo'yicha

\*\* dvigatelning hajmiga qarab quyidagi razryadlar belgilanadi:

Dvigatelning ish hajmi (litrda)	Razryad
1,8 gacha	1
1,8 dan 3,5 gacha	2
3,5 dan yuqori	3

\*\*\* Uyushma direktorining buyrug'i asosida tashkil qilinadi.

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Uyushma xizmatning umumiy shtatlar soni doirasida ushbu shtat normativlariga o'zgartish kiritilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 738-son qaroriga  
2-ILOVA

## Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risida

### NIZOM

#### 1-bob. Umumiyy qoidalar

1. Mazkur Nizom yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar toifasiga kiruvchi shaxslar (keyingi o'rinnlarda — yoshlar) uchun, SOS O'zbekiston bolalar mahallalari

uyushmasi filialining (keyingi o'rirlarda — filial) bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlari, Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchasi bitiruvchilari, shuningdek, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oila farzandlari uchun SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasining yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlarining (keyingi o'rirlarda — xizmat) maqomini va ularni tashkil qilish tartibini belgilaydi.

2. Xizmat SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi (keyingi o'rirlarda — Uyushma) boshqaruvining qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi bilan kelishgan holda tashkil qilinadi va filialning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Xizmatda yoshlarning ijtimoiy-kommunikativ, o'ziga xos ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, puxta bilim olishlari, aqlan yetuk bo'lib yetishishlari, ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Xizmat ta'lim olishda, kasb-hunarga ega bo'lishda, barqaror daromadli ish topishda, o'zining mustaqil hayotini qurishda ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishda sifatli murabbiylik qilib (ko'maklashishga) to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishga qaratilgan.

4. Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatning pedagog va boshqa xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagog va boshqa xodimlarning funksional vazifalari hamda yoshlarga xizmat ko'rsatish standartlari uyushma tomonidan tasdiqlanadi.

## **2-bob. Xizmatning maqsad va vazifalari**

5. Xizmatning maqsadi yoshlarga samarali va sifatli ijtimoiy va psixologik-pedagogik yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlash, ularda mustaqillik, erkinlikni va jamiyatga yaxshi moslashish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

6. Xizmatning asosiy vazifalari quyidagilardir:

yoshlarga psixologik-pedagogik yordam berish, o'z kelajagi uchun mas'uliyatni his qilish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish va ruhiy zarbargalarga qarshilik ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy va oilaviy budgetni rejalashtirish malakalarini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy himoyasini va jamiyatga moslashuvini ta'minlash;

yoshlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy, oilaviy va turar joy gigiyenasiga rioya qilish ko'nikmalariga o'rgatish;

yoshlarda ma'naviy va madaniy qadriyatlarni, yaxshi xulq-atvorni, vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash;

yoshlarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, ularga o'z kasblarini o'zlarini tanlashlari uchun sharoitlar yaratish, ularni ishga joylashishlariga ko'maklashish;

qo'shimcha ta'lim olishga imkoniyatlar yaratish;

zarur hujjatlarni to'plash va vakolatli organlarga topshirish yo'li bilan yoshlarni xususiy uy-joy olish, turar joy olishga bo'lgan huquqlarini tiklashga ko'maklashish va ularning manfaatlarini himoya qilish;

yoshlarni mustaqil hayot kechirish bosqichiga qadam bosishlarida barcha chora-tadbirlar majmuuni amalga oshirish orqali qo'llab-quvvatlash;

yoshlarni o'z oilasi bilan munosabatlarini tiklashlariga ko'maklashish, shuningdek, yoshlarni o'z oilasiga birlashtirish maqsadida manfaatdor taraflar va hamkorlar bilan birgalikda ishlarni olib borish;

yoshlarni o'z oilasini qurishlarida ko'maklashish, oilani saqlashga yordam beradigan oilaviy qadriyatlarni tarbiyalash;

yoshlar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliy davlat organlari va boshqa mas'ul tashkilotlar bilan uzviy hamkorlik qilish;

yoshlarni samarali ijtimoiy integratsiya va reintegratsiya qilish uchun sharoitlar yaratish.

## **3-bob. Xizmat tomonidan tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish**

7. Xizmatdagi tarbiyaviy jarayon pedagog tomonidan bajariladi. Har bir pedagog 3 dan 8 nafargacha bo'lgan yoshlarga hamrohlik qiladi.

8. Filialning bolalarni muqobil parvarish qilish xizmati bitiruvchilarini umumiy o‘rtta ta’lim muassasasini tugatishi xizmatga o‘tkazish uchun asos bo‘ladi.

9. Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari bitiruvchilarini xizmatga qabul qilish quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

umumiy o‘rtta ta’lim muassasasini tugatganlik;

yoshlarni yashaydigan joy bo‘yicha tuman (shahar) hokimining qarori va/yoki vakolatli davlat organining murojaati/yo‘llanmasi.

10. Og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalardagi yoshlar xizmatga vakolatli davlat organining murojaati asosida qabul qilinishi mumkin.

11. Yoshlarning xizmatga qabul qilinishi uchun erkin xohish bildirishi qabulning majburiy sharti hisoblanadi.

Yoshlarni xizmatga qabul qilishda alohida yondashuv qo‘llaniladi va yoshlarning vaziyati e’tiborga olinadi.

12. Yoshlarni xizmatga qabul qilish filial direktorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan Bolalarni qabul qilish bo‘yicha komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi.

13. Tarbiyalash uchun xizmatga olinishi mumkin bo‘lgan yoshlar soni filial ma’muriyati tomonidan Uyushmaning ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

14. Xizmat o‘z ishida quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

barcha harakatlar va qarorlar xizmatda tarbiyalanayotgan yoshlarning eng yaxshi manfaatlari yo‘lida qabul qilinadi hamda ularning jinsi, etnik kelib chiqishi, yoshi, sog‘lig‘i, diniy va ijtimoiy maqomidan qat‘i nazar, qo‘llab-quvvatlanadi;

xizmatda tarbiyalanayotgan yoshlar bilan ishlashda xizmat xodimlari maxfiylik, yoshlarning huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga amal qiladilar.

15. Yoshlar o‘z-o‘zini ta’minalashning kuyidagi asosiy mezonlariga erishganlarida xizmatdan chiqarib yuboriladilar:

o‘z faoliyatidan yoki oila a‘zosidan olinadigan barqaror va yetarli daromadning mavjudligi; ijtimoiy aloqalar va ko‘nikmalarga ega bo‘lish — jamiyatda yashash va samarali o‘zaro harakat qilish, boshqa odamlar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatish, nizolarni hal qilish, o‘z huquqlarini amalga oshirish, majburiyatlarni bajarish, boshqa fuqarolarning huquq va manfaatlarini hurmat qilish qobiliyatini ko‘rsatib beruvchi ijtimoiy moslashuv darajasi;

ishga joylashish yoki tadbirkorlik, kompyuter savodxonligi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, umumiy va kasbiy ta’lim, qo‘srimcha ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning yoshlarning shaxsiy manfaatlari va qobiliyatlariga muvofiq bo‘lishi, chet tillarini, o‘z pul mablag‘larini boshqarishni bilishi;

uy-joyning mavjudligi — uy-joy bilan ta’minalangan: xususiy uy-joyi bor yoki uzoq muddatli ijara shartlari asosida uy-joyni ijaraga olgan yoki qarindoshlarining uyida yashashi.

Yoshlar o‘z-o‘zini ta’minalashning quyidagi qo‘srimcha mezonlariga erishishi ham maqsadga muvofiqdir:

hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish — kundalik hayotda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilish, uy ishlarini olib borish, ish va o‘qish bilan bir qatorda o‘z qiziqishlariga vaqt topish;

hissiy barqarorlik — hayotga nisbatan ijobiy qarash, o‘z o‘tmishini qabul qila olishi va kimgadir kerakli bo‘lish tuyg‘usini shakllantirishi, shuningdek, o‘zi va boshqalarga g‘amxo‘rlik qila olishi;

21 yoshga, ayrim hollarda 23 yoshga to‘lgan bo‘lishi.

16. Agar yoshlar biron-bir rasmiy ravishda tasdiqlangan sabablarga ko‘ra talabalar yotoqxonasida turar joy bilan ta’minalmagan bo‘lsa yoki biologik qarindoshlar ularga yashash joyini berishdan bosh tortgan hollarda yoki tibbiy, psixo-emotsional ehtiyojlar va boshqalar mavjud bo‘lsa, ular xizmat binosida yashashlari mumkin.

17. Yoshlarning kelajakdagisi hayot yo‘lini kuzatib borish va ularga mushkul vaziyatda psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish maqsadida xizmat binolaridan tashqarida yashovchi yoshlar xizmat tomonidan kuzatib boriladi.

#### **4-bob. Xizmat ta'minoti va uni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash**

18. Xizmat ta'minoti va uni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash davlat budjeti mablag'lar, muassislar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Ishchilarga to'lanadigan ish haqi, kommunal xizmatlar, bino va inshootlarni saqlash, ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish, shuningdek, xizmatning boshqa xarajatlari davlat budjeti mablag'lari hisobidan to'liq moliyashtiriladi.

Xizmat yuqorida sanab o'tilgan xarajatlarga qo'shimcha sifatida muassislar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga ham xarajatlarni amalga oshirishi mumkin.

Xizmat binolarida yashaydigan va ta'lim muassasalaridan stipendiya olmaydigan yoki ularning hayot ta'minoti uchun boshqa nafaqalar to'lanmaydigan yoshlar uchun oziq-ovqat, kiyim-kechaklar, poyabzallar, ko'rpa-yostiqlar, choyshablar va sochiqlar, kundalik xo'jalik va shaxsiy gigiyena buyumlari, kitoblar va o'quv qurollari uchun xarajatlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

19. Xizmat binolarida yashaydigan va ta'lim muassasalaridan stipendiya olmaydigan yoki ularning hayot ta'minoti uchun boshqa nafaqalar to'lanmaydigan yoshlar uchun xarajatlar miqdorini aniqlashda ushbu Nizomga [1](#), [2](#) va [3-ilovalarga](#) muvofiq oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal, yumshoq buyumlar va shaxsiy gigiyena vositalari bilan ta'minlash normalari qo'llaniladi.

20. Xizmat binolarida yashaydigan va ta'lim muassasalaridan stipendiya olmaydigan yoki ularning hayot ta'minoti uchun boshqa nafaqalar to'lanmaydigan yoshlarning xarajatlarini qoplash maqsadida ularning ta'minoti uchun har oyda xizmat koordinatoriga normativlarga muvofiq hisoblab chiqilgan pul mablag'lari to'lanadi.

21. Oziq-ovqat mahsulotlarini haftasiga kamida bir marta (tez ayniydigan oziq-ovqat mahsulotlarini haftasiga kamida ikki marta) sotib olish xizmat koordinatori tomonidan amalga oshiriladi.

Xizmat koordinatori yoshlarning yoshiba muvofiq ravishda balanslangan ovqatlanishini ta'minlaydi. Yoshlar sifatli va to'laqonli ovqatlanishining tashkil etilganligi ularning umumiyo rivojlanishini muntazam ravishda monitoring qilish natijalariga va sog'lig'i ko'rsatkichlariga ko'ra aniqlanadi.

Ovqat pishirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlardan sarflangan mahsulotlarni keyinchalik taomnoma bo'yicha hisobdan chiqarmasdan foydalilanadi.

Mahsulotlar chakana savdo tashkilotlaridan xarid qilinganda to'lov cheklari saqlab qo'yiladi, oziq-ovqat bozoridan naqd pulga xarid qilingan mahsulotlar uchun esa dalolatnoma tuziladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini va boshqa tovarlarni hisobdan chiqarish xizmat koordinatori tomonidan taqdim etilgan cheklar va dalolatnomalar asosida oyda bir marta amalga oshiriladi.

#### **5-bob. Xizmat shtati va boshqaruvi**

22. Xizmat ishini boshqarish filial direktorining bevosita rahbarligida koordinator tomonidan amalga oshiriladi.

23. Xizmat xodimlarining soni [4-ilovada](#) keltirilgan Namunaviy shtatlarga muvofiq belgilanadi.

Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi [nizomga](#)  
[1-ILOVA](#)

#### **Xizmatda tarbiyalanayotgan bolalarni oziq-ovqat bilan ta'minlash me'yorlari (bir kishi hisobiga kuniga grammada (brutto)**

T/r	Oziq-ovqat mahsulotining nomi	Norma
1.	1-nav bug'doy non	600
2.	1-nav bug'doy uni	45

3.	Kartoshka uni (kraxmal)	3
4.	Yorma,makaron mahsulotlari	90
5.	Qand-shakar	90
6.	Qandolat mahsulotlari	25
7.	Sariyog‘	35
8.	O‘simlik yog‘i	20
9.	Sut-qatiq mahsulotlari	500
10.	Smetana	20
11.	Tvorog	50
12.	Pishloq	15
13.	Go‘sht, parranda go‘shti	150
14.	Kolbasa mahsulotlari	25
15.	Baliq	90
16.	Tuxum (dona)	1
17.	Kartoshka	400
18.	Sabzavotlar, shu jumladan, tomatpastasi	455
19.	Ho‘l mevalar, rezavorlar, sharbatlar	250
20.	Quruq mevalar, shu jumladan, na’matak 5 gr.	15
21.	Choy	0,5
22.	Kakao	1
23.	Yodlangan tuz	12
24.	Xamirturush	1

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahsulotlarni almashtirish jadvaliga muvofiq ayrim turdagи oziq-ovqatlarni almashtirishga ruxsat etiladi. Ovqatlanish ushu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar doirasida tashkil etiladi.

2. Xizmatda yoshlarning sport va boshqa tadbirdarda ishtirok etishi uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa shaharlarda bo‘lgan vaqtlarida ovqatlanish normalariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari yoki ovqatlanish xarajatlari uchun naqd pul berish huquqi beriladi.

Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risidagi nizomga  
2-ILOVA

### **Yoshlarni kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq buyumlar bilan ta’minlash**

#### NORMALARI

T/r	Kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq buyum nomi	O‘lchov birligi	Soni		Foydalanish muddati (yil)
			O‘g‘il bolalar uchun	Qizlar uchun	
<b>Kiyim-boshlar</b>					
1.	Qishki palto / kurtka	ta	1	1	2
2.	Mavsumiy palto, kurtka	ta	1	1	2
3.	Maktab formasi	to‘plam	1	1	1
4.	O‘g‘il bolalar uchun kostyumlar (galstuk bilan)	to‘plam	2	-	2
5.	Jun kostyum (bayramlar uchun)	to‘plam	1	-	2
6.	O‘g‘il bolalar uchun ip gazlamadan tikilgan mifik tab ko‘ylaklari	ta	3	-	1
7.	O‘g‘il bolalar uchun ip gazlamadan tikilgan ustki ko‘ylaklar	ta	3	-	1

8.	Qizlar uchun ko‘ylaklar (yubkalar, bluzkalar)	ta	-	3	1
9.	Qizlar uchun xalatlar/uy ko‘ylaklari	ta	-	2	1
10.	Qishki ko‘ylaklar (bayramlar uchun)	ta	-	1	1
11.	Jun sviterlar (jemperlar)	ta	2	2	2
12.	Yozgi ko‘ylaklar (bayramlar uchun)	ta	-	3	1
13.	Yozgi boshkiyim	ta	1	1	1
14.	Qishki bosh kiyim	ta	2	2	1
15.	Qizlar uchun triko va shimlar	ta	-	4	1
16.	Dastro‘mol	ta	6	6	1
17.	O‘g‘il bolalar uchunshim kamarlari	ta	1	-	1
18.	Sharf	ta	1	1	2
19.	Qo‘lqoplar (boshamaldoqli qo‘lqop)	juft	2	2	1
20.	Ich ko‘ylak	to‘plam	4	4	2
21.	Sport formasi, krossovkalar	to‘plam	1	1	1
22.	Byustgalter	ta	-	3	1
23.	Sport trusigi	ta	2	2	1
24.	Maykalar	ta	4	4	1
25.	Pypoqlar, ip gazlama golfiler	juft	5	5	1
26.	Pypoqlar, jun golfiler	juft	5	5	1
27.	Botinkalar, tuflilar (shippak)	juft	3	3	1
28.	Shippaklar	juft	2	2	1
29.	Etiklar, qishki botinkalar	juft	1	1	1
30.	Kalishlar	juft	1	1	1
31.	Sportkostyumi (yarim jun)	ta	1	1	1
32.	Tungi pijamalar	ta	2	1	1
33.	Kolgotkalar	ta	-	5	1
34.	Cho‘milish ko‘ylagi, plavkilar	ta	1	1	1
35.	Rezina shapka	ta	1	1	2
36.	Ish kiyimi	to‘plam	1	1	2
37.	Portfellar, sumkalar	ta	1	1	1
38.	Ryukzak/shaxsiy buyumlarni saqlash uchun sumka	ta	1	1	3

#### Yumshoq buyumlar

39.	Choyshablar	ta	3	1
40.	Ko‘rpa choyshablari	ta	2	1
41.	Yostiq jildi	ta	3	1
42.	Sochiq	ta	2	1
43.	Paxmoq sochiq	ta	2	1
44.	Jun yoki momiqliadyol	ta	1	6
45.	Paxmoq adyol	ta	1	3
46.	To‘sak	ta	1	4
47.	Par yostiqlar	ta	1	6
48.	O‘ringa yopiladigan choyshab	ta	1	3
49.	Karavot oldiga to‘shaladigan gilamcha	ta	1	4

## Yoshlarni shaxsiy gigiyena buyumlari bilan ta'minlash

### NORMALARI

T/r	Shaxsiy gigiyena buyumlarining nomi	O'lchov birligi	Bir nafar bolaga			
			O'g'il bolalar uchun		Qizlar uchun	
			Soni	Foydalanish muddati (yil)	Soni	Foydalanish muddati (yil)
1.	Tish pastasi	ta	12	1	12	1
2.	Tish cho'tkasi	ta	3	1	3	1
3.	Kir sovun	ta	12	1	12	1
4.	Atir sovun	ta	24	1	24	1
5.	Kir yuvish poroshoklari	paket (400 g.)	12	1	12	1
6.	Soqol olish buyumlari	ta	12	1	5	1
7.	Taroq	ta	2	1	2	1
8.	Hojatxona qog'ozzi	rulon	24	1	24	1
9.	Shampun	ta (200 g.)	12	1	12	1
10.	Dezodorant (aerozol)	ta	6	1	6	1
11.	Gigiyena qistirmalari	o'ram (10 tadan)	-	-	12	1
12.	Momiq paxta	o'ram (200 g.)		-	4	1
13.	Poyabzal moyi	tyubik	6	1	6	1
14.	Soqol olingandan keyin ishlataladigan loson	flakon (100 — 150g.)	6	1	-	-
15.	Badanni yuvish uchun gubka	ta	2	1	2	1
16.	Tog'ora	ta	1	3	1	3

Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi nizomga  
4-ILOVA

### Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlarining

### NAMUNAVIY SHTATLARI

T/r	Lavozimlar nomi	Bir o'lchov birlikka	Shtat birliklari soni	YaTS bo'yicha razryadi
1.	Koordinator	xizmat	1	8
2.	Bolalar va o'smirlar bilan tarbiyaviy ish olib boruvchi pedagog-tashkilotchi*	xizmat	8	Xalq ta'limi muassasasidagi pedagog-tashkilotching bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
3.	Xizmat xonalari farroshi	xizmat	0,5	1

\* Har bir pedagog-tashkilotchi hamrohlik qiladigan yoshlarning sonidan kelib chiqib, pedagog-tashkilotchi shtat birligi soni belgilanganidan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin.

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Uyushma xizmatning umumiy shtatlar soni doirasida ushbu shtat normativlariga o'zgartish kiritilishi mumkin.

## Ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida

### NIZOM

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar va oilalar uchun SOS Uzbekiston bolalar mahallalari uyushmasining ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmatlarini (keyingi o‘rinlarda — xizmat) tashkil etish, ularning maqomi va faoliyat tartibini belgilaydi.

2. Xizmat SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi filialining (keyingi o‘rinlarda — filial) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

Xizmat og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar hamda oilalarning hayotini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi bilan kelishgan holda SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi boshqaruvining qaroriga asosan tashkil qilinadi.

3. Xizmat xodimlarining funksional vazifalari hamda ijtimoiy xizmatlar turlari SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi (keyingi o‘rinlarda — uyushma) tomonidan tasdiqlanadi.

#### 2-bob. Xizmatning maqsad va vazifalari

4. Xizmatning maqsadi oiladagi bolalarning barcha ehtiyojlarini qondira oladigan mustahkam oila faoliyatini shakllantirish orqali ijtimoiy yetimlikni oldini olish.

5. Xizmatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bolalarning oilada o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish orqali ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish;

oilaning ichki munosabatlarida oilaning barcha a’zolari o‘rtasida samimiylilikni yo‘lga qo‘yish;

bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning bilim darajasini oshirish va ota-onalik ko‘nikmalarini shakllantirish;

bolalar va oilalarning muammolarini ijobiy hal qilish usullari bo‘yicha jamiyatga ko‘mak ko‘rsatish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni jamiyatga integratsiyalash, ularni jamiyatdan ajratish va boshqa salbiy stereotiplarni bartaraf qilish;

bolalarning o‘z oilalarida yashash huquqlarini ta’minalash uchun manfaatdor tashkilotlar hamkorligini tuzish;

oilada bolalarning o‘sishi va rivojlanishi uchun eng yaxshi muhitni yaratishga ko‘maklashish;

ijtimoiy yetimlikning oldini olish va bartaraf qilish uchun boshqa chora-tadbirlarni amalgalash;

#### 3-bob. Xizmat faoliyatini tashkil qilish tartibi

6. Xizmat bolalar va ularning oilalariga keng miqyosda ijtimoiy, psixologik xizmatlar ko‘rsatadi va ularni har taraflama qo‘llab-quvvatlaydi.

7. Xizmat filial hududida va/yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki boshqa hamkor tashkilotlar hududida (ijaraga olingan binolarda) tashkil etiladi.

Xizmat oilalarga xizmat ko‘rsatadigan mutaxassislarining mobil guruhlarini ham yo‘lga qo‘yishi mumkin.

8. Ko‘rsatiladigan xizmat turlari, ko‘lami va davomiyligi uyushma tomonidan tasdiqlangan ichki hujjalarga muvofiq belgilanadi.

9. Psixologik xizmatlar bolalar va ota-onalarning psixologik barqarorlik darajasini oshirish, hayot qiyinchiliklariga bardosh berish qobiliyatini shakllantirish maqsadida ularning ehtiyojlariga muvofiq yakka tartibda hamda guruh holidagi maslahatlar, tashxislash va psixologik korreksiya choralar shaklida ko‘rsatiladi.

10. Xizmat o‘zini o‘zi rivojlantirish, ota-onalik ko‘nikmalari, qattiq hayajon va his-tuyg‘ularni boshqarish, aloqa o‘rnatish, yetakchilik, bolalarni rivojlantirish psixologiyasi, oiladagi nizolarni boshqarish, tashqi dunyo bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini yaxshilash, jamiyatga moslashish qobiliyatları, shaxsiy gigiyena ko‘nikmalari, o‘zini o‘zi namoyon etish ko‘nikmalari, sog‘lom turmush tarzi va boshqa hayotiy ko‘nikmalar bo‘yicha treninglar tashkil etadi.

11. Xizmat bolalar uchun xizmat hissiy va kognitiv rivojlanish sinflari, maktabga tayyorgarlik guruhlari, maktab yoshidagi bolalar uchun kuni uzaytirilgan guruhlar, maktabdan tashqari tadbirlar, kompyuter savodxonligi bo‘yicha mashg‘ulotlar, shuningdek, musiqa, raqs to‘garaklarini va boshqa to‘garaklarni tashkillashtirib beradi.

12. Xizmat yoshlarning ehtiyojidan kelib chiqib, ular uchun o‘ziga o‘zi yordam guruhi, munozara klublari, mavzuli uchrashuvlar, yoshlarni klublari va boshqalarni tashkil etishda yoshlarga ko‘maklashadi.

13. Xizmat bolalar va oilalarga tibbiy yordam olishda, emlash, ambulatoriyada, statsionar, sanatoriyda davolanish, tibbiy reabilitatsiya qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, dori-darmonlar, uy aptechkalari, maxsus jihozlar va shaxsiy foydalanish moslamalari (nogironlar aravachasi, eshitish apparati va boshqalar) sotib olishda ham yordam ko‘rsatadi.

14. Xizmatning ijtimoiy xodimlari reproduktiv salomatlik, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar, OIV/OITS kabi sohalarda bolalar va kattalarning xabardorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkil etadi.

15. Zarur hollarda xizmat bolalar va kattalar bilan salomatlikka oid ularni qiziqtiradigan masalalar bo‘yicha guruh ko‘rinishidagi maxsus munozaralarni o‘tkazish uchun mutaxassislarini taklif qiladi/yollaydi.

16. Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda xizmat bolalar uchun yozgi oromgoh va sanatoriylarga yo‘llanma olishda yordam beradi.

17. Xizmat quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha yakka tartibda va guruh shaklidagi maslahatlar, treninglar, seminarlar va uchrashuvlarni tashkil etadi:

ota-onalik ko‘nikmalarini oshirish;

bolalarni tarbiyalash masalalarida maslahatlarni taqdim etish;

ota-onalarning bolalar huquq va ehtiyojlar sohasidagi bilimlarini oshirish;

ota-onalarning huquqlari va majburiyatları sohasidagi bilimlarini oshirish.

18. Xizmat tutingan ota-onalar va vasiylarni (homiylarni) qo‘llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, bolalari institutsional tarbiya muassasalaridan (bolalar uylari, mehribonlik uylari, va h.k.) qaytib kelgan oilalarning ota-onalariga mavzuli mashg‘ulotlarni tashkil etadi.

19. Bolalarini maktabgacha ta’lim tashkilotida qoldirish imkoniga ega bo‘lmagan ota-onalar, ishlaymaydigan va bolalarini parvarish qilayotgan yosh onalar uchun ularning bandligini ta’minalashga, boshqa masalalarni hal qilishga yordam berish maqsadida bolalarning tegishli xizmat xonasida kunduzgi vaqtida qolish imkoniyati tashkil etiladi.

Bolalarni kunduzgi vaqtida parvarish qilish ota-onalar bilan xizmat o‘rtasida tuzilgan kelishuvga ko‘ra amalga oshiriladi.

Xizmatning ushbu turi 1 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Guruhda bir vaqtning o‘zida 5 dan ortiq bola bo‘lmasligi kerak. Bolalar kunduzgi parvarish guruhida bo‘lgan vaqtida mutaxassislar tomonidan bolalarning yoshi va rivojlanish xususiyatlariga qarab bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib borilishi mumkin.

20. Xizmat oilalarga yo‘qolgan hujjatlarini tiklash, mulk huquqlarini himoya qilish va tiklash, ijtimoiy nafaqalar so‘rab murojaat qilish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish, aliment olish va to‘lash kabi huquqiy xususiyatdagi masalalarni hal qilishda yordam beradi.

21. Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda xizmat kasb-hunarga tayyorlash va gayta tayyorlash, yangi kasb-hunarlarini o‘zlashtirish, ular bo‘yicha stajirovka qilish va ishga joylashishda ko‘maklashadi.

22. Xizmat o‘smirlar uchun kasbga yo‘naltirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkil qiladi.

23. Oilalarning turmush sharoitini yaxshilash maqsadida, shuningdek, oiladagi inqirozli vaziyatlarda xizmat bolalar va oilalarga moddiy yordam, shu jumladan, oziq-ovqat solingen paketlar, kiyim-kechak va boshqa eng zarur buyumlarni taqdim etishi mumkin.

24. Xizmat jamiyat a'zolariga, bolalar va ota-onalar uchun milliy va xalqaro bayramlarga bag'ishlangan ijtimoiy tadbirlarni tashkil etishda yordam beradi. Shuningdek, xizmat bolalar va oilalar uchun mavzuga oid tanlov va viktorinalar, bayram tadbirlari, madaniy hordiq chiqarish tadbirlarini tashkil qilishi mumkin.

25. Bolalar va oilalarga yordam berish uchun xizmat shtatdagi va jalb qilingan mutaxassislardan pulli asosda yoki jamoatchilik asosida foydalanadi.

26. Bolalar va oilalar haqida mutaxassislar tomonidan olingan ma'lumotlar maxfiydir va oshkor qilinmaydi.

27. Xizmat himoyaga muhtoj oilalar va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish vazifalarini bajarishga jalb qilingan hamkor tashkilot xodimlarining bilim va malakalarini oshirishga ko'maklashadi.

28. Xizmatning o'z resurslari yetarli bo'limgan holatlarida xizmat hamkor tashkilotlarning ishtirokini ta'minlaydi.

#### **4-bob. Xizmatning maqsadli guruhi**

29. Xizmatning maqsadli guruhi 18 yoshgacha bo'lgan quyidagi toifadagi bolalardir:

ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lish xavfi ostidagi bolalar;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar;

ota-onalari farzandlariga tegishli tarzda g'amxo'rlik qilish imkoniyati yo'q bolalar;

ko'p bolali oila farzandlari;

ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;

o'z oilasiga reintegratsiya qilish imkoniga ega bo'lgan bolalar.

30. Xizmatga qabul qilingan bolalarning ota-onalari ham xizmatdan yordam olishlari mumkin.

31. Xizmatga qabul qilinmagan mushkul vaziyatga tushib qolgan bolalar yoki oilalar zarur yordam olish uchun tegishli vakolatli organlarga yoki jamoat tashkilotlariga yuboriladi.

#### **5-bob. Maqsadli guruhlarni qabul qilish va chiqarish mezonlari**

32. Xizmatga qabul qilishda oila bolalarning ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lish xavfi mezonlari bo'yicha baholanadi.

Xizmatga qabul qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

vakolatli organlarning (vasiylik va homiylik organlari, ta'lim va tibbiyot muassasalarining) xizmatga murojaatlari/yo'llanmalari;

mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, hamkor tashkilotlar, shu jumladan, nodavlat va notijorat tashkilotlarning xizmatga murojaatlari/yo'llanmalari.

33. Xizmat oilalarga 6 oydan 18 oygacha hamrohlik qiladi. Bu vaqt mobaynida xizmatning sa'y-harakatlari oilaning o'zini o'zi ta'minlash mezonlariga erishishiga qaratiladi. Oila o'zini o'zi ta'minlash mezonlariga erishganidan so'ng xizmatning hamrohligidan chiqariladi.

Oilaning o'zini o'zi ta'minlash mezonlari quyidagilardir:

ota-onalarning bolalarni sifatli parvarish qila olishi (ular ota-onalik ko'nikmalariga ega bo'lib, bolalar huquqlari to'g'risida biladilar);

oilaning yetarli resurslarga ega bo'lishi (iqtisodiy xavfsizlik, barqaror uy-joy, oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik);

bolalarning asosiy ehtiyojlari qondirilishi (ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalar).

Ushbu mezonlarga ega bo'lish oilani rivojlantirish rejasida belgilangan maqsadlarga erishganligini anglatadi.

34. Oilani rivojlantirish rejasiga har 6 oyda oilani xizmatdan chiqarish masalasini aniqlash uchun baholanadi.

35. Oila o'z xohishiga ko'ra xizmatdan belgilangan muddatidan avval chiqishi yoki hamkorlik qilmasligi sababiga ko'ra xizmatdan chiqarilishi mumkin.

36. Agar oila 18 oy davomida xizmat hamrohligida bo‘lib, rejalashtirilgan maqsadlarga erishmasa, bu oilaga kelgusida hamrohlik qilish maqsadga muvofiq emasligi tufayli xizmatdan chiqarilishi lozim. Ushbu qoidaning har bir istisnosi uyushmaning ichki hujjatlariga muvofiq qat’iy asoslangan bo‘lishi kerak.

#### **6-bob. Infratuzilma va zarur resurslar**

37. Xizmat ushbu Nizomda bayon qilingan barcha xizmatlarni taqdim etish uchun yetarli xonalarga ega bo‘lishi kerak.

38. Mutaxassislar, alohida va guruh holidagi maslahatlar, guruh mashg‘ulotlari, treninglar va seminarlar ishi uchun xonalar, bolalarning yashash joylari, o‘yin xonasi, resurs xonasi tegishli mebel, jihozlar, kompyuter, ofis va multimedia texnikasi, maxsus asbob-uskunalar va anjomlar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim.

39. Agar aholi punktida kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun o‘quv markazlari bo‘lmasa, xizmatning maxsus jihozlangan xonalarida kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun sharoit yaratiladi. Shu maqsadda xonalarda asbob-uskunalar (tikuvchilik, sartaroshlik, oshpazlik va boshqalar) o‘rnataladi. Ushbu asbob-uskunalar va jihozlar tegishli shartnoma tuzilgan holda kasb egallash va qonuniy daromad olish maqsadida vaqtincha foydalanish uchun oilalarga berilishi mumkin.

40. Agar xizmat atrofida qulay hudud bo‘lsa, unda jihozlangan bolalar o‘yin maydonchasi yaratilishi mumkin. Qishloq joylarda xizmat atrofidagi hudud jamoalar aholisining iqtisodiy farovonligini oshirish, ya’ni jamoalar aholisi tomonidan non yopish maqsadida milliy pechlarni (tandirlarni) o‘rnatish, sabzavot va mevali daraxtlarni ekish uchun ishlatilishi mumkin.

41. Mutaxassislarning mobil guruhi ishini ta’minalash maqsadida xizmat bolalar va oilalarga qulay bo‘lgan hududda mobil guruhning ko‘chib yurib xizmat ko‘rsatishi uchun transport vositasi bilan ta’milanadi.

#### **7-bob. Xizmat ta’mnoti va uni moddiy-texnik jihatdan ta’minalash**

42. Xizmat ta’mnoti va uni moddiy-texnik jihatdan ta’minalash davlat budjeti mablag‘lari, muassislar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag‘lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Ishchilarga to‘lanadigan ish haqi, kommunal xizmatlar xarajatlari va boshqa joriy xarajatlар, bino va inshootlarni saqlash xarajatlari, ularni ta’mirlash, ularga xizmat ko‘rsatish va boshqa xizmat xarajatlari davlat budjeti mablag‘lari hisobidan to‘liq moliyalashtiriladi.

Xizmat, shu jumladan, yuqorida sanab o‘tilgan xarajatlarga qo‘srimcha sifatida muassislar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag‘lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobiga boshqa xarajatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **8-bob. Xizmat shtati va boshqaruvi**

43. Xizmat ishini boshqarish filial direktorining bevosita rahbarligida koordinatori tomonidan amalga oshiriladi.

44. Xizmat xodimlarining soni **1-lovada** keltirilgan Namunaviy shtatlarga muvofiq belgilanadi.

**Ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmatlarining faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risidagi nizomga  
1-ILOVA**

#### **Ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmatlarining NAMUNAVIY SHTATLARI**

T/r	Lavozimlar nomi	Shtat birliklari soni				YaTS bo‘yicha razryadi
		Toshkent shahri	Samarqand shahri	Urganch shahri	Shovot tumani	
1.	Koordinator	1	1	1	-	8
2.	Koordinator yordamchisi	1	-	-	-	5

3.	Etakchi ijtimoiy xodim	1	1	1	1	7
4.	Ijtimoiy xodim	4	4	2	2	6
5.	Psixolog	2	2	1	1	Xalq ta'limi muassasalaridagi psixologning bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi
6.	Xizmat xonalari farroshi	0,5	0,5		0,5	1
7.	Yuriskonsult	0,5	0,5	0,5	-	8
8.	Ishga joylashtirish bo'yicha mutaxassis	0,5	0,5	0,5	-	4
9.	Qorovul	-	-	-	2	1

Izoh: SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishuvga ko'ra va xizmatning umumiy shtatlar soni doirasida ushbu shtat normativlariga o'zgartish kiritilishi mumkin.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2020-y., 09/20/738/1521-son)*